**Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali**

**Modul:** Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

# Mavzu:

# Internet va uning xizmatlari



# Reja:

1. Elektron pochta va undan foydalanish.
2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
3. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlari
4. ZiyoNet ta’lim portali

# Internet haqida tushuncha

**Internet** – bu yagona standart asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog‘idir. Uning nomi tarmoqlararo degan ma’noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarini birlashtiruvchi informatsion tizim bo‘lib, o‘zining alohida axborot maydoniga ega bo‘lgan virtual (xayolan) to‘plamdan tashkil topgan. **Internet** tufayli butun jahon bo‘ylab yoyilib ketgan ko‘plab kompyuterlarning yagona informatsion muhitga birlashtirish imkoniyati beradi.





**Internet** birinchi navbatda tarmoq mijozlariga o‘zaro ma’lumotlar almashishi virtual muloqat qilish imkonini yaratib beruvchi “informatsion magistral " vazifasini o‘taydi, ikkinchidan esa unda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bazasini majmuasi, dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. **Internet** ga bog‘lanish va undan foydalanish asosiy texnik vositasini shaxsiy kompyuter tashkil etadi.

Uning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida unga mikrafon, videokamera, ovoz chiqargich va boshqa qurilmalarni ulash mumkin. **Internet** xizmati “**Internet provayderlari**” yordamida aloqa kanallari yordamida orqali amalga oshiriladi. Aloqa kanallari sifatida telefon tarmog‘i, kabelli kanallar radio va kosmos aloqa tizimlaridan foydalaniladi.



**Internet** tarmog‘i asosiy yacheykasi bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o‘zaro bog‘lovchi Lokal tarmoqdir. Agar biron -bir mahalliy tarmoq bevosita **Internet** ga ulangan bo‘lsa, u holda mazkur tarmoqning har-bir ishchi stansiyasi **Internet** ga ulangan bo‘lishi mumkin. Internetning ikkita asosiy funksiyasi bor. Buning birinchisi **informatsion** funksiya bo‘lsa, ikkinchisi **kommunikatsion** funksiyadir.



# Elektron pochta

Elektron pochta maxsus dastur bo‘lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya’ni ixtiyoriy faylni tezda (bir necha soniyalarda) jo‘natish va qabul qilib olish mumkin.

Internet-xalqoro tarmog‘ining asosini elektronik mail (E-mail) - elektron pochta xizmati tashkil qiladi.




info@minsport.uz

Foydalanuvchi nomi

Pochta belgisi

Pochta provayderi yoki server nomi

**Bepul hamda eng ommabop elektron pochta xizmatlari**

**Milliy elektron pochta**

uMail.uz

INBOX.UZ

# O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali




O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining Internet tarmog‘idagi rasmiy davlat axborot resursi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalining tashkil etilishi va qo‘llab-quvvatlanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 3 iyundagi 188-son qaroriga muvofiq faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali davlat organlarining, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi elektron-axborot hamkorligi infratuzilmasining tizim tashkil etuvchi elementi hisoblanadi.

# O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali asosiy vazifalari.

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot ham jihatligini ta'minlash;
- ma'lumotlarni belgilangan formatdagi taqdimida davlat muassasalari o`rtasida «hukumat» darajasida axborotlarni almashinuvi;
- ma'lumotlarning markazlashtirilgan bazasiga kirish asosida yagona axborot resurslaridan birgalikda foydalanish;
- davlat-jamiyat ham jihatligini ta'minlash;
- davlat-fuqaro;
- davlat-iqtisodiy munosabatlar subyektlari;
- davlat-jamoat institutlari (siyosiy, diniy, milliy, madaniy, notijorat va hkz. tashkilotlar va birlashmalar);

- tashqi auditoriyaga mo`ljallangan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ko`psonli axborot resurslariga, idoralarning «yoyilgan» serveriga kirishning yagona nuqtasini yaratish;
- davlat institutlarining faoliyati to`g`risida axborotlarni taqdim etish;
- huquqiy axborotga kirishni ta'minlash (respublika, mintaqaviy qonunchilik, vazirlik va idoralarning normativ aktlari);
- davlatda «Global axborotlashgan jamiyat»ga mos munosabatlarni bunyod etish va shakllantirishga ko`maklashish;
- davlat institutlarining ishlash samaradorligini oshirish;
- idoraviy va byurokratik to`siqlarni engib o`tishga ko`maklashish;
- davlat xizmatining obro`si va nufuzini oshirish.

# O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali



# O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

O’zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali internet tarmog’ida O’zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida, shu jumladan, «bir darcha» tamoilida faoliyat ko’rsatadi.

Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlari ko’rsatish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi «O’zbekiston Respublikasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron davlat xizmatlari ko’rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida» 728-sonli qarorida keltirilgan **O’zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to’g’risida nizomi**ga muvofiq ro’yxatdan o’tish va avtorizasiya qilish jarayonlaridan o’tgan foydalanuvchilar uchun amalga oshiriladi.

# Yagona interaktiv davlat xizmatlari asosiy vazifalari



- foydalanuvchilarga davlat organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;
- foydalanuvchilarni axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integrasiyalash;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish;
- «Elektron hukumat» tizimini yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko‘maklashish.




**ID.UZ tizimi**

ID.UZ – Milliy internet tarmog‘i segmentidagi saytlar va axborot tizimlari uchun yagona identifikasiya va autentifikasiya markazidir.

ID.UZ yagona identifikasiya markazi vazifasini bajarib OpenID protokolini qo‘llab-quvvatlovchi har qanday saytlar va loyihalarga kirish imkoniyatini yaratadi

**LexUZ – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi**

LexUZ tizimining maqsadi - yuridik va jismoniy shaxslarning me’yoriy-huquqiy hujjatlardan keng foydalanishini ta’minlash orqali aholining huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatni huquqiy axborotlar bilan ta’minlash tizimini takomillashtirishdir.

# ZiyoNET jamoat axborot ta’lim tarmog‘i

O‘zbekiston Respublikasi Birnchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 28 sentyabrdagi PQ-191- sonli “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq tashkil topgan.

ZiyoNET tarmog‘ining asosiy maqsadi, respublika yoshlari hamda ta’lim oluvchilari uchun ta’lim olish tizimida keng ko‘lamli axborot-kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat.

# Ziyonet ta'lim tarmog'ining ko'rinish



# ZiyoNET jamoat axborot ta’lim tarmog‘i subdomenlari

1. people.ziyonet.uz – mashhur vatandoshlarimiz haqidagi ma’lumotlar;
2. sites.ziyonet.uz – foydali saytlar bazasi;
3. library.ziyonet.uz – elektron kutubxona;
4. foreign.ziyonet.uz – xorijiy tillarni o‘rganish;
5. ask.ziyonet.uz – savol-javoblar xizmati;
6. institutions.ziyonet.uz – ta’lim muassasalari katalogi;
7. groups.ziyonet.uz – ijtimoiy guruhlar tizimi;
8. blogs.ziyonet.uz – web sayt yaratish xizmati;
9. abiturient.ziyonet.uz – Respublika oliy ta’lim muassasalaridagi barcha mutaxassisliklar bo‘yicha ma’lumotlar va testlar;
10. meros.ziyonet.uz – O‘zbekiston madaniy merosi;
11. games.ziyonet.uz – ta’limiy o‘yinlar jamlanmasi;
12. talents.ziyonet.uz – iqtidorli yoshlar bloki;

# E’tiboringiz uchun rahmat!